



## O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK PIARNI RIVOJLANISHI

**Nazokat Kamalova**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi o'zbekiston milliy  
universitetlar jurnalistika fakulteti  
10.00.09 – ixtisosliga tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash haqida, Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan borayotgani haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Atmosfera, havo, yo'nalish, muhofaza qilish, fan, biogeotsenoz, organizm, populyatsiya.*

Ekologiya (qadimgi yunoncha: οἶκος — „uy“, „turar joy“) — organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar; populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar (ekosistemalar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o'rganadigan biologiya fanlari majmui. Ekologiyani organizmlar va ular bilan atrof muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi. Ekologiya o'rganadigan ob'yektlariga ko'ra, umumiy va xususiy ekologiyaga ajratiladi.

Umumiy ekologiya organizmdan yuqori turadigan har xil sistemalarning tuzilishi va funksiyasini o'rganadi. U populyatsiyalar ekologiyasi, biotsenologiya, ekosistemalar ekologiyasi kabi bo'limlardan iborat. Populyatsiyalar ekologiyasi populyatsiyalarining strukturasi va miqdoriy dinamikasining umumiy qonuniyatlari hamda har xil turlar populyatsiyalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (raqobat, yirtqichlik)ni tadqiq qiladi. Biotsenologiya (hamjamoalar ekologiyasi) biotsenozlarning tuzilishi qonuniyatlari, tarkibi va funksiyasini o'rganadi.

Hozirgi zamon fan va texnikasining rivojlanishi eng yuqori darajasiga ko'tarilganligi bilan amalda sanoat korxonalarining biosferaga zaharli ta'sirini butunlay yo'q qilish mumkin bo'lmay qoldi. Qisqa vaqt ichida ishlab chiqarish korxonalaridan tarqalayotgan zaharli chiqindilar miqdorini kamaytirish, faqatgina katta quvattidagi texnik tozalash uskunalari yordamida bajarilishi mumkin. Texnologiyani o'zgartirish, texnik tozalash, shaharsozlik va huquqiy tadbirlar hozircha atrof-muhit muhofazasi muammolarini oxirigacha hal etolmaydi.

Aholi zich yashaydigan Samarqand va Farg'ona viloyatlariga yirik kimyo zavodlarining joylashishini noo'rin deb hisoblash mumkin. Hozirgi davrda kelib, respublikada kun sayin aholining o'sib borishini e'tiborga olgan holda, yangi turar joy hududlarini barpo etish talab qilinadi. Respublikamizning ko'pchilik shahar va boshqa turar joy markazlari qadimdan shakillanganligi, savdo va boshqa turdagi ijtimoiy ma'muriy xizmat korxonalariga moslashganligi uchun atroflariga esa sanoat markazlarining tashkil etilishi, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Ayrim





joylarida zavod rahbarlarining tashabbusi bilan yirik zavodlar atroflarida ham turar joy hududlari barpo etiladi. Masalan, Samarqand kimyo zavodi yonida "Kimyogarlar" shaharchasi barpo etilgan shaharcha rivojlanib borishi tufayli, alohida ahamiyatga ega bo'lgan kichik shahar toifasiga yaqin hisoblanadi. Shaharcha hududida yil davomida vaqti-vaqti bilan kimyo zavodi tutunlari paydo bo'lishi turardi. Respublikamizda tabiiy boyliklardan asosiysi sug'oriladigan yerlar bo'lib, ushbu joylardan sanoat va turar joylarini joylashtirish tabiat muhitini buzilishiga va respublikaning kelgusidagima'naviy boyliklarni yo'qolishiga olib keldi. Ushbu omillarni e'tiborga olib, tabiat muhitini muhofaza qilish tabiiy boyliklarni saqlash va ulardan samarali foydalanish hamda iqlimni saqlab qolish maqsadida faoliyat darajasiga qarab respublikamiz mintaqalariga bo'linadi:

1. Tabiatdagi qo'riqxonalar, yirik o'rmonlar, tog'-dam olish joylari, daryo ko'l vasuv havzalarining qirg'oqlari hamda tabiiy iqlim omillari bo'yicha ahamiyatli hisoblanadigan hududlar.

2. Qishloq xo'jalik ekinlariga moslashgan hududlar (sug'oriladigan yerlar va boshqa har xil o'simliklar hamda daraxtzorlar mumkin bo'lgan joylar).

3. Turar joy va o'zidan zararsiz chiqindilar chiqaradigan sanoat markazlari joylashgan hududlar bunday hududlarda shaharsozlik va tibbiy geyinik talablar asosida ular orasida himoya mintaqasi joylashadi.

Bunday zararsiz korxonalar turkumini atmosferaga zaharli tutun chiqarmaydigan suv havzalari va zaminga o'zining chiqindisini o'tkazmaydigan o'zidan katta shovqin chiqarmaydigan korxonalar tashkil qiladi.

Ekologik nuqtai nazaridan dam olish va davolanish uchun taqsimlanayotgan hududiy mintaqalar respublika viloyat va tumanlarda bosh reja loyihasida ko'rsatiladi. Unda ishlab chiqarish kuchlarining turar joy hududlarining o'rni ommaviy dam olish sayohatchilar va ular davolanish uchun joylar ko'rsatiladi. Bunday hududiy taqsimot atrof muhitni muhofaza qilish uchun eng yuqori darajadagi shaharsozlik tadbiri bo'lib, hisoblanadi.

Zarafshon daryosi qirg'oqlari va Urgut tog'lari va boshqa tabiat ko'rkam joylar ma'daniy hordiq chiqarish dam olish maskani sifatida ajratilishi mumkin.

Agar viloyatlarda hududiy taqsimotni maqsadga binoan ishlab chiqarish yo'lga quyilsa o'sha joy aholisining turmush tarsi keskin ravishda rivojlanadi, yaxshilanadi. Tabiiy muhitning holati nuqtayi nazaridan va O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish chizma loyihasi asosida respublika hududini uch ta ekologik faoliyat doirasidagi mintaqalarga ajratish mumkin:

- tabiiy landshaf
- xo'jaliklar uchun foydalanishi chegaralangan mintaqa
- xo'jaliklar jadal foydalanishi mumkin bo'lgan mintaqa

Birinchi faoliyat mintaqasiga kuchli va maxsus tabiatni muhofaza qilish talab etilgan holatlar kiradi qo'riqxonalar milliy bog'lar o'zlashtiriladigan hudud, o'rmon xo'jaligi ko'chat yetishtiradigan xo'jalik, ovchilik xo'jaliklari.





Respublika hududida bir qancha qo'riqxonalar bo'lib, ular davlat tomonidan qo'riqlanadi. Qo'riqxonada tabiat boyligi bo'lib, soni kamayib ketadigan jonivorlar va o'simliklar qo'riqlanadi. Qo'riqxonalar bilan birgalikda bir necha milliy bog'lar ham mavjud. Bu bog'larda qadimiy daraxtlar va o'simliklar rivojlanishi uchun imkoniyat yaratilgan.

O'zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo'lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o'rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.


Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo'lishi natijasida XX asr o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat-salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma - xiligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog'liq halokatli ekologik - iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash. Orol bo'yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta'minlash uchun Markaziy osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo'jaligi siyosatini ishlab chiqish hamda har-bir Respublikaning Orol dengiziga quya oladigan suvi, ya'ni Orol bo'yidagi barcha tabiiy ko'llarni saqlab qolish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilishning asosiy yo'nalishi shahar va aholi yashaydigan punktlarda atmosfera havosining sifatini yaxshilash, keyinchalik sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilish buning uchun Respublikamizning barcha hududlarida chiqindilarni kamaytirish, kam chiqindili texnologiyalarni yaratish, chang to'plovchi va tozalovchi yangi qurilmalarni yaratish va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish eskirgan qurilmalarni yaxshilash bilan almashtirish va boshqalar. Orol dengizining qurishi iqlim o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Qurg'oqchilik tufayli iqlimning keskin kontinentalligi ortib ketdi. Dengiz va quruqlik o'rtasidagi haroratning o'zgarishi, shamol tezligining ortishi, suvning to'lqinlanish hodisasini kuchaytirishiga olib keldi.





Atmosfera havosini muhofaza qilish boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining (keyingi o'rinlarda Davlat ekologiya qo'mitasi deb yuritiladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

Davlat ekologiya qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Nizomi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining buyruq va topshiriqlari asosida ish olib boradi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasining barcha tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlikda ish olib boradi.

